"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

SHOERGASHOVA SHOBEGIM SHAROF QIZI

IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ZARAFSHON DARYOSI SUV SIFATI SHAKLLANISHIGA ANTROPOGEN AZOT BIRIKMALARINING TA'SIRI

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UO'K: 627.152:543.272.37:504.38(575.1)(043)

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

SHOERGASHOVA SHOBEGIM SHAROF QIZI

IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ZARAFSHON DARYOSI SUV SIFATI SHAKLLANISHIGA ANTROPOGEN AZOT BIRIKMALARINING TA'SIRI

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4999 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.tiiame.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Karimov Baxtiyor Quramboyevich**
	biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kulmatov Rashid Anarovich**
	kimyo fanlari doktori, professor
	Myagkov Sergey Vladimirovich
	texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning «___» _____ 202_ yil soat ___ ⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100000, Toshkent sh., Qori-Niyoziy ko‘chasi, 39-uy. Tel.: (+99871) 237-46-68, e-mail: admin@tiiame.uz.

Dissertatsiya bilan “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent sh., Qori-Niyoziy ko‘chasi, 39-uy. Tel.: (+99871) 237-19-45.

Dissertasiya avtoreferati 202__ yil «___» ____ kuni tarqatildi.

(202__ yil «___» _____dagi ___- raqamli reestr bayonnomasi).

Bakiyev Masharif Ruzmetovich
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik
Ilmiy Kengash raisi, texnika
fanlari doktori, professor

Gapparov Furqat Axmatovich
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik
Ilmiy Kengash kotibi, texnika
fanlari doktori, professor

Radkevich Mariya Viktorovna
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik
Ilmiy Kengash qoshidagi bir martalik
ilmiy seminar raisi, texnika
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda suv resurslari tanqisligi muammosi dolzarblashib bormoqda. Asosiy suv iste'molchisi bo'lgan qishloq xo'jaligida bu muammo ayniqsa yaqqol sezilayotganligi bilan bir qatorda ichimlik va sanoat ehtiyojlarini sifatli suv bilan ta'minlash borasida ham ko'pgina muammolar mavjud. Suvni ifloslantiruvchi asosiy manbalar sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi faoliyati va kommunal-maishiy xo'jalikdir. Qishloq xo'jaligida turli mineral o'g'itlardan foydalanish, kundalik hayotda turli kimyoviy moddalarning roli tobora ortib borishi, kommunal-maishiy va sanoat oqova suvlarining ko'pincha yetarli darajada tozalanmagan holda daryo va kanalizasiyaga oqizilishi suv resurslarining intensiv ifloslanishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda ekinzorlarda foydalanilayotgan mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish uchun ishlatilayotgan kimyovy zaharli vositalarning ancha qismi kollektor-drenaj suvlari orqali yer usti va yer osti suvlarining ifloslanishiga olib kelmoqda. Shu jihatdan, suvning sifatidagi o'zgarishlarni ekologik tahlil qilish va ta'sir etayotgan antropogen omillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda suv sifati va uni boshqarish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan yanada adolatli, barqaror va farovon dunyo yaratish uchun belgilangan bir qancha Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish bilan bevosita bog'liq. Xususan, suv sifati BRM 3: "Yaxshi salomatlik va farovonlik" va BRM 6: "Toza suv va sanitariya" maqsadlariga erishish ustuvor hisoblanmoqda[1]. Shu bilan birga, suv ekotizimlarining tanazzulga uchrashi va resurslarning miqdoriy va sifat jihatidan kamayishi tendentsiyasining davom etishi barcha suv iste'molchilari uchun chuchuk va toza suv tanqisligi xavfini bartaraf etish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda aholi sonining o'sishi 2030 yilga borib yuqori sifatli chuchuk suvga bo'lgan talabning 2,3 milliard m^3 dan 2,7-3,0 milliard m^3 ga (18-20%) oshishiga olib kelishi kutilmoqda. Bu esa ichki suv resurslariga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi[2]. So'nggi yillarda sanoat va energetika ham faol rivojlanmoqda, bu sohalarning suvga bo'lgan talabi yil sayin ortib bormoqda. Natijada, suv resurslarini ifloslanishdan muhofaza qilish, yer usti va yer osti suvlarining sifatini yaxshilash, suv sifati monitoringini takomillashtirish suv xo'jaligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmonida nazarda tutilgan qishloq va kommunal xo'jaliklarda suv resurslarining kamayishi va ifloslanishidan himoya qilishga qaratilgan vazifalarni hayotga tadbiq etishga ma'lum darajada hissa qo'shadi[3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

---

[1] 17 BRM. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish sammiti, 2015 yil.
[2] Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi holati hisoboti. FAO, 2022 yil.
[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmoni.

2021-yil 24-fevraldagi PQ-5005-sonli "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi[4] hamda 2022-yil 1-martdagi PQ-145-sonli "Quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish hamda suv iste'molchilari orasidagi munosabatlarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[5] qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosiga ma'lum darajada xizmat qiladi hamda suv xo'jaligi sohasidagi faoliyatlarga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlantirishning V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Suv resurslari muammolari va ularning sifat va miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar O.Olsson, M.Groll, E. Yilmaz, T. Nasrabadi, X. Sun va boshqalar kabi xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan. Yerdan foydalanishning daryolardagi suv sifatiga ta'sirini quyidagi olimlar o'rganishgan: M. Matysik, Y. Huang, C. Chiang, F. Zhang, N. Shen va boshqalar. Qishloq xo'jaligi amaliyotlarining daryo suvi sifatiga ta'siri M.Gunawardhana, Bijay-Singh, A.Lobanova, E.Severini va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Sanoat va urbanizatsiyaning daryolar sifatiga ta'siri I.Khan, F.Lemessa, F.Liu, S.Wang va boshqalar tomonidan tahlil qilingan. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi ta'sirida daryolarning antropogen azot birikmalari bilan ifloslanishini o'rganish M. Mimikou, P. Whitehead, R. Wilby, M. Astaraie-Imani, B. Pernet-Coudrier, M. Varol, T. Trang, M. Gabriel, N. Akhtar va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

MDH mamlakatlarida daryolarning azot bilan ifloslanishining vaqt-zamon va fazoviy dinamikasi bo'yicha tadqiqotlar olimlar A. Kornilov, V. Shesterkin, A. Chaiko, T. Zhuldybina, M. Larionov, E. Morzhakova, Yu. Limonov, N. Murashchenkova, E. Storozhenko va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Respublikamizda Orol dengizi havzasi suv resurslari: daryolar, ko'llar va suv omborlari, jumladan, Zarafshon daryosi suvining ifloslanishi masalalari R.Kulmatov, E. Chembarisov, S.Myagkov, I. Normatov, B. Karimov, R. Razoqov, R. Toryannikova, B. Nishonov, A. Nasrulin va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Biroq shu bilan bir qatorda, yuqorida ko'rsatilgan ilmiy manbalar tahlili ko'rsatadiki, antropogen (qishloq xo'jaligi, sanoat va kommunal-maishiy) ifloslanish manbalarining Zarafshon daryosi suvi sifatiga aynan azotli birikmalari bilan ifloslanishi miqdori bo'yicha ta'sirini har tomonlama chuqur baholash, shuningdek, iqlim o'zgarishining bu jarayonga ta'sirini ilmiy asoslash ishlari amalga

---

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-5005-sonli Qarori.

[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish hamda suv iste'molchilari orasidagi munosabatlarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-145-sonli Qarori.

oshirilmagan. Shu nuqtai-nazardan, azotli birikmalar bilan ifloslanish manbalarining fazoda taqsimlanishi, ularning migratsiyasi va o'zgarishi, shuningdek, Zarafshon daryosi havzasidagi maishiy chiqindi suvlar, sanoat va qishloq xo'jaligi faoliyatining azot birikmalari bilan ifloslanish darajasiga ta'sirini baholash hozirgi kunda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi: Dissertasiya tadqiqoti 2020-2022 yillardagi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining "Suv resurslarini va atrof-muhitni boshqarishni iqlim o'zgarishi sharoitiga moslashtirish tadbirlarini takomillashtirish" (Dav. registratsiya №1.7 (2020-2022)); hamda "Suv resurslarini boshqarishda suvdan foydalanishning yopiq tizimlariga o'tish va ekologik barqarorlikni ta'minlash" (Dav.registratsiya № 1.7 (2023-2024)) mavzularidagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi: Zarafshon daryosi suv sifati shakllanishiga antropogen azot birikmalarining iqlim o'zgarishi sharoitida ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Zarafshon daryosida azot birikmalari (ammiak, nitrit, nitrat) kontsentratsiyalari va suv sifatining fizik va gidrokimyoviy ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish;

Zarafshon daryosida azot birikmalari kontsentratsiyalarining vaqt-zamon va fazoviy o'zgarishlarini miqdoriy baholash va mavsumiy va uzoq muddatli tendentsiyalarini ilmiy asoslash;

geografik axborot tizimi (GAT) usullaridan foydalangan holda Zarafshon daryosi havzasidagi azot birikmalari bilan ifloslantiruvchi manbalarning fazoviy taqsimlanishini, suv sifatiga qishloq xo'jaligi va maishiy chiqindi suvlar va sanoatning ta'sirini baholash;

Zarafshon daryosida azotli birikmalar konsentratsiyasiga iqlim o'zgaruvchilari (havo harorati va yog'ingarchilik) ta'sirini aniqlash;

Zarafshon daryosining suv sifatini barqaror boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Zarafshon daryosi havzasining O'zbekiston hududida joylashgan o'rta va quyi oqimlari olingan.

Tadqiqotning predmeti antropogen ifloslanish va iqlim o'zgarishining Zarafshon daryosi o'rta va quyi oqimidagi suv sifati ko'rsatkichlariga (elektr o'tkazuvchanligi, umumiy muallaq qattiq erigan moddalar, harorat, erigan kislorod, kimyoviy kislorod talabi, azotning ammoniy, nitrit va nitrat shakllari) ta'siri hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida spektrofotometrik usul, statistik va korrelyatsion tahlillar, shuningdek, GAT va fazoviy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

azot birikmalarining konsentratsiyasi va fizik-gidrokimyoviy ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik olingan, suv sifati o'zgarishining vaqt-zamon va fazoviy xususiyatlari ilmiy jihatdan isbotlangan;

7

azot bilan ifloslanishning turli manbalarini fazoviy taqsimoti baholangan, Zarafshon daryosi havzasining o‘rta va quyi oqimida shahar va qishloq xo‘jaligi manbalariga tegishli azot yuklamalari hisoblab chiqilgan;

agrar manbalardan azotli birikmalar bilan ifloslanishda ammoniy azoti (N-NH_4) eng sezgir indikator ekanligi ilmiy asoslangan va azotli birikmalar bilan "eng yuqori" ifloslanish xududlari aniqlangan;

Zarafshon daryosi havzasining o‘rta va quyi oqimida 1960-2020 yillarda haroratning biroz o‘sishi (0,02-0,04°C) tendensiyalari topilgan. Lekin, harorat, yog‘ingarchilik va azot birikmalari o‘rtasida sezilarli korrelyatsion bog‘liqlik yo‘qligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

GAT texnologiyalaridan foydalangan holda antropogen va iqlim omillarini kompleks tahlil qilish asosida Zarafshon daryosida suv sifatini azotli birikmalar bilan ifloslanish darajasini barqaror boshqarish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ko‘p yillik ma’lumotlar asosida daryodagi suv sifati o‘zgarishining uzoq muddatli tendentsiyalari aniqlandi, bu esa mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni bashorat qilishga va suvdan foydalanishda rejalashtirishni takomillashtirish imkonini bergan;

Zarafshon daryosi havzasida shahar va qishloq xo‘jaligi hududlaridan kelib tushadigan azot yuklamalari hisoblab chiqilgan va "Qishloq xo‘jaligidan daryo ekotizimiga tushadigan azot yuklamasini hisoblash" EHM dasturi (№ DGU 43328) yaratilgan;

GAT texnologiyalaridan foydalangan holda Zarafshon daryosining hozirgi ifloslanish darajasining raqamli xaritalari ishlab chiqilgan, azot birikmalari bilan ifloslanishning "eng kuchli" hududiy nuqtalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uzoq muddatli ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tahlillar zamonaviy statistik dasturlardan foydalangan holda olib borilganligi, dala kuzatuvlari belgilangan talablar asosida amalga oshirilganligi, zamonaviy laboratoriya jihozlaridan foydalanilganligi, ilmiy ish natijalari nufuzli xorijiy va milliy ilmiy jurnallarda chop etilganligi, amaliy natijalar esa tegishli davlat organlari tomonidan tan olinganligi va tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, daryo suvlari sifatining mavsumiy va uzoq muddatli tendentsiyalari asoslab berilganligi, ifloslanishning asosiy manbalari aniqlanganligi, antropogen ta’sirning azot birikmalari bilan ifloslanish darajasiga katta hissa qo‘shganligini, hamda iqlim o‘zgarishining suvdagi azot birikmalari miqdoriga juda sust ta’sir ko‘rsatishi isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Zarafshon daryosidagi suv sifatini baholash bo‘yicha davlat ekologik monitoring tizimini takomillashtirish, ifloslanish xaritalari yordamida suvdan namuna olish tartibi va chastotasi bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarni belgilash, boshqaruv strategiyalarini optimallashtirish, gidroekologik va sanitariya sharoitlarini yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida foydalanishga amaliy tavsiyalar berilganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, tadqiqotda daryo havzasiga qishloq xo‘jaligidan

kelib tushadigan azot yuklamalarni aniqlash va bashorat qilish uchun EHM dastur yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqlim o‘zgarishi sharoitida Zarafshon daryosida suv sifatining shakllanishiga antropogen azot birikmalarining ta'sirini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

suv sifatini boshqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi "Karmana-Konimex" irrigatsiya tizimi boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 25 sentyabrdagi 03-03/3-9385 son ma'lumotnomasi). Natijada, bu ekotizim xizmatlari va aholi salomatligini himoya qilish hamda monitoring tizimini takomillashtirish imkonini bergan;

ishlab chiqilgan EHM dasturi Samarqand viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 25 sentyabrdagi 03-03/3-9385 son ma'lumotnomasi). Natijada, Zarafshon daryosi havzasining o‘rta va quyi oqimida qishloq xo‘jaligi manbalariga tegishli azot yuklamalarini aniqlash va bashorat qilish imkonini bergan;

ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy tavsiyalar Samarqand viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 25 sentyabrdagi 03-03/3-9385 son ma'lumotnomasi). Natijada, bu suv sifatini yaxshilash va havzada suv ekotizimlarining ekologik barqarorligini ta'minlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ishlar nashr etilgan, shulardan Scopus jurnallarida 2 ta, OAK ro‘yxatiga kiritilgan jurnallarda 3 ta maqolalar chop etilgan va 1 ta EHM dasturga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligi va unga bo‘lgan talab asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti keltirilgan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnika rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, shuningdek, dissertatsiya tugatilgan ta'lim muassasasining ilmiy faoliyati bilan bog‘liqligi alohida ta'kidlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati keng yoritilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiq etish, aprobatsiyadan o‘tkazish va nashr etish

to'g'risidagi shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining "Iqlim o'zgarishi sharoitida Zarafshon daryosi suv sifatining shakllanishiga antropogen azot birikmalarining ta'siri (adabiyot sharhi)" deb nomlangan birinchi bobida daryolar ekotizimlarining azot birikmalari bilan ifloslanishi va uning ekologik oqibatlari masalalari yoritilgan. Ushbu bobda iqlim o'zgarishining daryolar ekotizimidagi azot birikmalari dinamikasiga ta'siri tahlil qilingan, mahalliy va xalqaro adabiyotlar asosida Zarafshon daryosi havzasidagi suv sifati va ifloslanish muammolari o'rganilgan. Adabiyotlarni tahlil qilishga ko'ra, daryolarning azot bilan ifloslanishi global miqyosda, ayniqsa qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda keng tarqalgan muammodir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi bilan intensiv faoliyat yuritadigan hududlarda azot birikmalari bilan sezilarli darajada ifloslanish kuzatilgan. Shuningdek, bir qator tadqiqotlarda suv havzalarining azot birikmalari bilan ifloslanish darajasi iqlim o'zgarishi va yerdan foydalanish ta'siriga e'tibor qaratilgan. Iqlim o'zgarishi suv havzalarining biogen moddalar bilan ifloslanishining salbiy oqibatlarni kelajakda yanada kuchaytirishi kutilishi xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning "Metodika va ma'lumotlar manbalari" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyekti, o'rganilayotgan suv sifati parametrlari, ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan kontsentratsiyasi, namuna olish chastotasi va tartibi, namuna olish nuqtalarining nomlari va joylashuvi, gidrokimyoviy va statistik ma'lumotlar, shuningdek, GAT texnologiyalaridan foydalangan holda fazoviy tahlil qilish uchun interpolyatsiya usuli tasvirlab berilgan. Muallif tomonidan tahlil qilingan hududlarning koordinatalar ko'rsatilgan xaritasi tuzilgan (1-rasm).


1-rasm. Tadqiqot hududi – Zarafshon daryosi havzasi

Dissertatsiyaning "Iqlim o'zgarishi va uning Zarafshon daryosi havzasining suv sifatiga ta'siri" deb nomlangan uchinchi bobida Zarafshon daryosi havzasidagi so'nggi bir necha o'n yillikdagi (1960-2020) iqlim ma'lumotlarini tahlil qilishimiz sezilarli tendentsiya va harorat o'zgarishlarini aniqladi. To'rtta meteorologik stansiya – Samarqand, Qushrobod, Nurobod va Dagbit ma'lumotlari 10°C dan 20°C

10

gacha bo'lgan oraliqda umumiy barqaror haroratni, ma'lum davrlarda biroz o'sish tendentsiyasini ko'rsatdi (2-rasm). Statistik tahlillar, shu jumladan Mann-Kendall testi va Senning nishab baholovchisi yordamida biz birinchi marta 1991–2000 yillar oralig'idagi o'n yillikda barcha o'rganilgan meteorologik stansiyalarda haroratning 0,12–0,15°C gacha ko'tarilish tendentsiyasi kuzatilganligini aniqladik. Bundan tashqari, butun o'rganish davrida 0,02-0,04°C gacha bo'lgan umumiy o'sish tendentsiyasi kuzatildi. Xususan, Samarqand stansiyasida 2001-2010 yillarda havo harorati 0,07°C ga ko'tarilganligi aniqlandi.

2-rasm. Zarafshon daryosi havzasidagi iqlim o'zgaruvchilarining uzoq muddatli o'rtacha yillik qiymatlari


3-rasm. Zarafshon daryosi havzasida suv sarfi (Ravotxo'ja – U1), yog'ingarchilik va havo haroratining (Samarqand) o'rtacha ko'p yillik ko'rsatkichlari

Yog'ingarchilik va suv oqimi sarfi haqidagi ma'lumotlar tahlili aniq izchil trendsiz o'zgaruvchanlik mavjudligini ko'rsatdi. Sezilarli muhim cho'qqilar 1969 yilda qayd etildi: Samarqandda 50,16 mm, Qushrobodda 55,67 mm, Nurobodda 58,47 mm. 1970 yildan beri ishlayotgan Dagbit stansiyasi 2020 yilda eng yuqori o'rtacha yog'ingarchilik - 52,27 mm ni qayd etdi. Shu bilan birga, suv oqimi 86,5

m³/s dan 163,3 m³/s gacha o'zgargan. Kuzatishlarga ko'ra, suvning kam bo'lgan davri 2021 yilda, ko'p suvli davr esa 2016 yilda qayd etilgan (3-rasm).

Ravotxo'ja stansiyasida o'rganish davrida azot birikmalarining o'rtacha ko'p yillik kontsentratsiyasi belgilangan REM me'yorlaridan oshmaganligi aniqlandi. N-NH4, N-NO2, N-NO3 va suv iste'moli o'rtasidagi korrelyatsiya tahlili mos ravishda -0,43, 0,08 va 0,21 qiymatlarni ko'rsatdi. Iqlim o'zgaruvchilari va azot birikmalari o'rtasidagi korrelyatsiya tahlili hech qanday muhim aloqa mavjud emasligini ko'rsatdi, bu suvdagi azot birikmalarining kontsentratsiyasiga boshqa antropogen ifloslanish omillari (qishloq xo'jaligi, sanoat va shahar oqova suvlari) sezilarli ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

4-rasm. Zarafshon daryosi suv sifati ko'rsatkichlarining vaqt-zamon va fazoviy o'zgarishlari (EC = elektr o'tkazuvchanligi, TSS = muallaq moddalarning umumiy miqdori, N-NH₄ = ammoniy azoti, N-NO₂ = nitrit azoti, N-NO₃ =nitrat azoti, T = harorat)

Dissertatsiyaning "Zarafshon daryosi havzasida suv sifati parametrlarining vaqt-zamon va fazoviy o'zgarishlarini baholash" deb nomlangan to'rtinchi bobi Zarafshon daryosi suvi ifloslanishining mavsumiy, yillik va fazoviy dinamikasini o'rganish, shuningdek, o'rganilayotgan parametrlarning uzoq muddatli trendlarini korrelyatsion tahlil qilish va aniqlashga bag'ishlangan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, muallaq moddalarning umumiy miqdori (TSS), harorat (T) va suvda erigan kislorod miqdori (DO) sezilarli mavsumiy tebranishlarni ko'rsatgan bo'lsa, elektr o'tkazuvchanligi (EC), ammoniy (N-NH_4), nitrit (N-NO_2), nitrat (N-NO_3) kontsentratsiyalari va kislorodga bo'lgan kimyoviy talab (COD) fazoviy joylashuvga qarab o'zgardi.

4-rasmda U1 dan U8 gacha bo'lgan gidropostlarda suvning elektr o'tkazuvchanlik kattaligi 362 dan 2160 µS/cm gacha oraliqda aniqlanib, U7 va U8 stansiyalarida esa sezilarli o'sish kuzatilgan. Eng past elektr o'tkazuvchanlik (362 µS/cm) yozda, eng yuqori elektr o'tkazuvchanlik (2160 µS/cm) esa bahorda kuzatilgan. Muallaq moddalar (TSS) miqdorining ko'rsatkichlari yozda eng yuqori darajada (1145 mg/l) aniqlandi va qishda minimal darajaga tushdi (28,8 mg/l). N-NH_4 va N-NO_2 ning yuqori darajasi barcha fasllarda U3 va U8 da qayd etildi, maksimal N-NO_3 (5,81 mg/l) esa yozda U8 da aniqlandi. Suv harorati U7 va U8 (23,7ºC) da doimiy ravishda yuqori bo'lgan.

Uzoq yillik tahlillar shuni ko'rsatdiki, Zarafshon daryosining eng yuqori ifloslanish darajasi "Navoiyazot" zavodidan quyi oqimda kuzatilgan. Daryo bo'ylab fazoviy tahlil natijasida turli xil ifloslanish manbalari aniqlandi (5-rasm).

"Navoiyazot" zavodining ta'siridan tashqari, Siyob va Darg'om kanallaridan qo'shiluvchi oqova suvlar, xususan, nitrit bilan ifloslanish, va shu bilan bir qatorda, Samarqand shahrining oqova suvlari ta'siri ham sezilarli darajada Zarafshon daryosining ifloslanishga olib keladi, bu esa COD darajasining ortishiga sabab bo'ladi. Navoiy viloyatining sho'rlangan tuproqlari ham sezilarli darajada elektr o'tkazuvchanligi (EC) oshishiga hissa qo'shgan. Rasmdagi azotli birikmalar o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya umumiy ifloslanish manbalarini ko'rsatadi, ko'tarilgan COD darajasi esa, asosan, turli xil organik moddalar bilan sezilarli darajada ifloslanishini ko'rsatadi, bu ularning shahar kommunal-maishiy oqovalaridan kelib chiqishini ifodalaydi.

Pearson korrelyatsiya koeffitsienti (r) matritsasi EC ning COD, T, N-NO_3 va N-NO_2 (r>0,50) bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligini ko'rsatdi. TSS barcha o'rganilgan parametrlar bilan zaif korrelyatsiyani ko'rsatdi. N-NH_4 DO bilan manfiy korrelatsiyaga ega (-0,89) va N-NO_2 va N-NO_3 (r>0,50) bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyalangan, shuningdek, COD (0,35) bilan zaif korrelyatsiyaga ega. Bundan tashqari, N-NO_2 kontsentrasiyasi COD, T, N-NO_3, N-NH_4 va EC bilan ijobiy (r>0,50) va DO (-0,7) bilan manfiy korrelyatsiyalangandir. N-NO_3 va T hamda boshqa o'rganilgan parametrar orasida kuchli va o'rtacha korrelyatsiya kuzatildi (r>0,40), TSS (0,24) va DO (-0,39) dan tashqari. COD esa T, N-NO_3, N-NO2, EC (r>0,50), N-NH_4 va TSS (r<0,50) bilan ijobiy korrelyatsiyalangan (6-rasm).

**5-rasm. Zarafshon daryosida EC, N-NH₄, N-NO₂, N-NO₃, COD, DO, TSS va T
ning fazoviy o'zgarishlari (2022-yil kuz)**

Mann-Kendall testi natijalari ba'zi gidropostlarda (2U va 6U) EC va N-NH₄ uchun o'sib borish trendini aniqladi, TSS, N-NO₃, T va COD uchun pasayish trendlari kuzatildi. Suv sifatining boshqa ko'rsatkichlari esa sezilarli trendlarni ko'rsatmadi.

6-rasm. Zarafshon daryosida oʻrganilgan suv sifati turli koʻrsatkichlarining Pearson korrelyatsiya koeffitsienti (r) matritsasi (har bir gidropost uchun oʻrtacha yillik koʻrsatkichlar)

Dissertatsiya ishining "Urbanizatsiya, sanoat va qishloq xoʻjaligining Zarafshon daryosi suv sifatining shakllanishiga ta'siri" nomli beshinchi bobi toʻrt boʻlimni oʻz ichiga oladi. Birinchi boʻlim yerdan foydalanishning suv sifatiga ta'sirini oʻrganishga bagʻishlangan. Ikkinchi boʻlim aholi sonining oʻsishi va sanoat rivojlanishining suv resurslari holatiga boʻladigan ta'sirlariga bagʻishlangan. Uchinchi boʻlimda Zarafshon daryosi havzasidagi suv resurslariga qishloq xoʻjaligi, jumladan mineral oʻgʻitlar va kollektorlardan foydalanishning ta'siri tahlil qilingan.

Yerdan foydalanishning suv sifatiga ta'sirini baholash uchun yerdan foydalanishning uchta asosiy turiga e'tibor qaratgan holda RDA tahlili oʻtkazildi: yaylovlar, qishloq xoʻjalik yerlari va aholi punktlari (7, 8-rasmlar). Natijalar aholi punktlari bilan ammoniy va nitrat azoti kontsentratsiyasi (RDA = 0,66) oʻrtasida oʻrtacha ijobiy munosabatni koʻrsatdi, bu urbanizatsiyalashgan hududlarda ushbu birikmalarning kontsentratsiyasi yuqori darajadaligini anglatadi.

7-rasm. Zarafshon daryosi havzasining oʻrta va quyi oqimida yer qoplami va yerdan foydalanish xaritasi (2022 yil)

Bundan tashqari, COD va aholi punktlar hududlari (RDA = 0,89) oʻrtasida kuchli bogʻliqlik qayd etildi, bu urbanizatsiyaning sezilarli ta'sirini koʻrsatmoqda. Yaylov va qishloq xoʻjalik yerlari azot miqdoriga kam ta'sir koʻrsatdi, ammo N-NO₃

15

va N-NH₄ o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik aniqlandi, bu sinergik yoki umumiy ifloslanish manbalarini ko‘rsatishi mumkin.


8-rasm. Yerdan foydalanish turlarining (ko‘k chiziqlar bilan ifodalangan) suv sifatiga ta'sirining (qizil chiziqlar bilan ifodalangan) RDA ordinatsion diagrammasi

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, havzada aholi soni yildan-yilga oshib, azot kontsentratsiyasining o‘sishiga hissa qo‘shmoqda. Masalan, 2020 yilda aholi soni 2010 yilga nisbatan 1,17 martaga oshgan. Natijada, oqova suvlar hajmining o‘n yil davomida barqaror o‘sish trendi kuzatildi, xususan 2016-yildan (212 million m³) sezilarli darajada o‘sdi. Bu trend urbanizatsiya va sanoat faoliyatining havzadagi suv sifatiga ta'siri kuchayib borayotganini ko‘rsatadi (9-rasm).

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududida Zarafshon daryosi havzasida maishiy oqova suvlarni tozalash samaradorligi 70 foizni tashkil etadi. Shu samaradorlikni hisobga olgan holda azot yuklamasi 21648 kg (2020) ni tashkil etdi. Ushbu samaradorlikni 80% gacha oshirish azot yuklamasini (14432 kg/yil) hozirgi darajaga nisbatan 1,5 barobar kamaytirishi mumkin. Samaradorlikni 90% gacha oshirish esa azot yuklamasini (7216 kg/yil) mos ravishda 70% va 80% samaradorlikdagiga nisbatan 2-3 barobarga kamaytirishi mumkin (10-rasm).


**9-rasm. Yillik oqava suvlarning umumiy hajmi**

10-rasm. 70% tozalash samaradorligi bilan shahar oqava suvlaridagi azot yuklamasi

Zarafshon daryosi havzasidagi sanoat faoliyati tahlili suv sifati va ekotizim salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. To'rtta xavfli toifaga bo'lingan 5353 ta sanoat korxonalari orasidan yuqori xavfli (IV) toifadagi korxonalarning eng katta qismi joylashgan hududlar Forish, Jomboy, Nurobod, Pastdarg'om tumanlari va Samarqand shahriga to'g'ri keladi (11-rasm).


11-rasm. Zarafshon daryosi havzasidagi sanoat korxonalarining fazoviy taqsimoti (I-IV darajali xavflilik toifalari)

Zarafshon daryosi havzasida o'g'itlardan foydalanishni o'rganish jarayonida Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani (o'rta oqim) paxta, bug'doy va poliz ekinlari yetishtirish uchun azotli o'g'itlardan foydalanuvchi asosiy hudud ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, Samarqand viloyatining Bulung'ur tumani kartoshka yetishtirishda azotli o'g'itlardan eng ko'p foydalanuvchi asosiy hudud sifatida ajralib turadi (12-rasm). Oxirgi besh yil davomida $N-NH_4$ kontsentratsiyasining tahlili sug'orish davrida 3U maydonda ushbu modda REM dan sezilarli darajada (1,5-2,1 marta) oshib ketganini ko'rsatdi. 3U maydonda $N-NO_2$ kontsentratsiyasi ham yuqori bo'lgan, ammo vegetatsiya bo'lmagan davrda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan ifloslanish manbalarini ko'rsatadi. $N-NO_2$ darajasi REM dan 1.5-4.5 marta oshib ketdi. $N-NO_3$ kontsentratsiyasi sug'orish davrida ortdi, lekin REM dan oshmadi, $N-NO_3$ miqdori quyi oqimda (7U) daryoning yuqori va o'rta oqimiga nisbatan yuqori qiymatlarini ko'rsatdi (13-rasm).

17

a) paxta   b) bug'doy

v) kartoshka   g) tarvuz va qovun

12-rasm. Zarafshon daryosi havzasida qishloq xo'jaligi va poliz ekinlarini yetishtirishda azotli o'g'itlardan foydalanish (2019-2023-yillar)


13-rasm. Azot birikmalarining sug'oriladigan (vegetatsiya) va sug'orilmaydigan davrlardagi uzoq muddatli o'rtacha konsentratsiyasi

Azotli o'g'itlarning fazoviy taqsimoti tahlili shuni ko'rsatadiki, eng katta ta'sir daryoning o'rta oqimida kuzatiladi, bu yerda qishloq xo'jaligi amaliyotlari azot ta'sirini sezilarli darajada oshiradi (14-rasm).

Bu Zarafshon daryosi havzasining azot bilan ifloslanishiga qishloq xo'jaligining ta'siri yuqoriligini ta'kidlab, qishloq xo'jaligi faoliyati tufayli 3U (o'rta oqim) da $N-NH_4$ kontsentratsiyasining ortishi haqidagi oldingi xulosalarimizni tasdiqlaydi.

14-rasm. 2019-2022 yillarda Zarafshon daryosi havzasida aniqlangan azotli o'g'itlarning fazoviy taqsimot xaritalari


15-rasm. Azot miqdori 34% va 46% bo'lgan o'g'itlardan foydalanganda azot yuklamasi ko'rsatkichlari

Biz o'g'itlardan umumiy foydalanish natijasida daryoga tushayotgan azot yuklamalarini hisoblab chiqdik. Azot yuklamasi karbamidli o'g'itdan (karbamid) 7472,04-10897,81 t ni, ammoniy selitradan esa 5522,81-8054,9 t ni tashkil qildi (15-rasm).

Zarafshon daryosi havzasida (2022-2023) o'tkazilgan dala tadqiqotlari davomida bir qancha kollektorlardan (Qorasuv, Siyob, Shaxob, Xovzaksoy, Go'zalkent, Zarmon, Karmana, Amu-Buxoro – o'rta oqimdan quyi oqimgacha) suv namunalari olindi va laboratoriyada tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Xovzaksoyda $N-NH_4$ (3,7 mg/l) va $N-NO_2$ (0,107 mg/l) ning eng yuqori

19

kontsentratsiyasi qayd etilgan bo'lsa, Karmanada eng yuqori ko'rsatkich N-NO$_3$ (19,58 mg/l) va kislorodga bo'lgan kimyoviy talab (70 mg/l) kuzatildi. Umuman olganda, eng sezilarli darajada ifloslanish N-NH$_4$ bilan bog'liq bo'lib, uning barcha kollektorlardagi kontsentratsiyasi REM dan 2.56-9.49 marta oshdi. N-NO$_2$ miqdori Qorasuv, Siyob va Xovzaksoy kollektorlarida mos ravishda REMdan 1.7, 1.1 va 5.3 martadan oshib ketdi. N-NO$_3$ kontsentratsiyasi esa Qorasuv, Xovzaksoy, Go'zalkent va Amu-Buxoroda REMdan 1.3 marta, Karmanada 2.2 martadan oshib ketgani aniqlandi (16-rasm).

16-rasm. Kollektorlardagi suv sifatining hozirgi holati

XULOSALAR

Ushbu tadqiqotda Zarafshon daryosidagi antropogen tasirlar natijasida shakllanadigan azot birikmalari va ularning iqlim o'zgarishi sharoitida suv sifatini shakllanishidagi roli keng qamrovli tahlil qilingan. Dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Suv sifatining TSS, T va DO kabi parametrlari mavsumiy (vaqt-zamonda) o'zgarishlarga moyilligi aniqlandi, salbiy ta'sirlar ayniqsa yoz mavsumida kuzatildi. Yozda kuzatilgan TSSning keskin o'sishi (3,355 mg/L) cho'kindi yuklamasining yuqori ekanligidan dalolat beradi. Boshqa ko'rsatkichlar (N-NH$_4$, N-NO$_2$, N-NO$_3$, COD, EC) esa fazoviy taqsimot xususiyatlariga bog'liqligi aniqlandi. Ko'p yillik tahlillar ifloslanishning asosiy manbalaridan biri "Navoiyazot" zavodi ekanligini ko'rsatdi.

2. Zarafshon daryosi havzasida birinchi marta Mann-Kendall testi qo'llanildi va natijalar mos ravishda 2U va 6U da EC ($\tau = 0,72$) va N-NH$_4$ ($\tau = 0,46$) ortish trendini ko'rsatdi, TSS, N-NO$_3$, T va COD kabi boshqa parametrlar esa pasayish trendiga ega. Korrelyatsiya tahlili shuni ko'rsatdiki, suv oqim sarfi TSS bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega ($\tau = 0,53$), ammo EC ($\tau = -0,55$), N-NH$_4$ (r = -0,43) va COD ($\tau = -0,59$) salbiy korrelyatsiya koeffitsientlarini ko'rsatdi. DO va N-NH$_4$ o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik aniqlandi ($\tau = -0,89$).

3. Azotli o'g'itlar paxta va bug'doy yetishtirishda eng yuqori miqdorlarda (mos ravishda 18601,33 t va 18167,50 t) qo'llanilishi aniqlandi. Poliz ekinlarida

20

o'g'itlar minimal iste'mol qilingan (351,68 t). Umuman olganda, eng ko'p miqdordagi o'g'itlar 2022 yilda (42 305,17 t) ishlatilgan bo'lib, bu 2019 yilda kuzatilgan eng kam ishlatilganidan (29 006,36 t) 45,85 foizga ko'pdir. Qo'llanilgan karbamid o'g'itidagi azot yuklamasi 7472,04 t dan 10897,81 t gacha, ammoniyli selitrada azot yuklamasi esa 5522,81 t dan 8054,9 t gacha bo'lgan.

4. Qishloq xo'jaligida, xususan, Pastdarg'om va Bulung'ur tumanlarida azotli o'g'itlardan foydalanishning ko'payishi daryoda azotli birikmalar miqdorining oshishiga olib kelmoqda. Vegetatsiya va novegetatsiya davrida azot birikmalarining kontsentratsiyasini tahlil qilish qishloq xo'jaligining Zarafshon daryosi suviga ta'sirini baholash imkonini berdi. Sug'orish davrida, ayniqsa, azotli o'g'itlar eng ko'p qo'llaniladigan daryoning o'rta oqim qismida $N-NH_4$ kontsentratsiyasi balandligi (1,5-2,1 REM) hamda $N-NO_3$ ning yuqori konsentratsiyasi (ammo REMdan oshmagan) kuzatildi. Bu shuni ko'rsatadiki, suv havzalarining mazkur birikmalar bilan ifloslanishi qishloq xo'jaligi faoliyati natijasida shakllanib, ko'p jihatdan qishloq xo'jaligida qo'llanilayotgan amaliyotlar ta'sirida yuz beradi. Shu bilan birga, novegetatsiya davrida $N-NO_2$ kontsentratsiyasi REM dan 1,5-4,5 barobar yuqori bo'lishi aniqlangan, bu uning kelib chiqish manbai qishloq xo'jaligi emas, balki sanoat yoki shahar oqova suvlaridan ekanligini ko'rsatadi.

5. Azotli birikmalar orasida qishloq xo'jaligi tomonidan ifloslanishga eng ko'proq moyil birikma $N-NH_4$ ekanligi aniqlandi. Tadqiqotlarimiz natijasida barcha o'rganilgan kanallarda, xususan, Xovzaksoy (N39.802960, E66.660802) va Karmana (40.159839, 65.173717) kanallarida $N-NH_4$ kontsentratsiyasi REM dan 2,56 dan 9,49 martaga oshganligi aniqlandi. Bundan tashqari, Karmana va Amu-Buxoro (40.140048, 64.902515) kanallari mineral tuzlar (EC 2370 va 4240 mkS/sm) va TDS (1630 va 2480 mg/L) bilan yuqori darajada ifloslanganligi, bu hududlarda suv sifatining jiddiy muammo ekanligini ko'rsatmoqda.

6. Daryo suvi azotli birikmalar bilan ifloslanishining quyidagi "eng kuchli" hududiy nuqtalari aniqlandi: $N-NH_4$ uchun - 14-namuna olish nuqtasida (40,0091927, 65,9526564) REM dan 7,5 marta ortiq, $N-NO_2$ uchun - S12 nuqtada (39,7848620, 66,7582210) REM dan 4,2 marta oshgan hamda $N-NO_3$ uchun – S16 (40,1329150, 65,5889920) va S26 (40,16088908, 40,16658908) nuqtalar oralig'ida yuqori darajada, lekin REM doirasida. Daryodagi COD kontsentratsiyasi S10 (39,7928880, 66,6900640) va S16 nuqtalarda suv ifloslanishining o'rtacha darajasiga egaligi aniqlandi.

7. Shahar hududlarining kengayishi kommunal-maishiy manbalardan tushadigan organik ifloslanishning ko'payishidan dalolat beruvchi COD darajasining oshishiga olib kelish tendentsiyasi aniqlandi (RDA = 0,89). Aholi soni yildan-yilga ortib bormoqda, shu sababli umumiy azot yuklamasi (hozirgi davrda azot birikmalaridan tozalash samaradorligi 70% ekanligini hisobga olgan holda) 2010 yildan 2020 yilgacha 17,56% ga oshganligi ochib berildi. Ko'pincha yetarli darajada tozalanmagan shahar oqova suvlari, bevosita daryo tizimidagi azot birikmalarining miqdori oshuviga hissa qo'shadi. Mintaqaning sanoat faoliyati, turli xil xavflilik darajasiga ega zavodlar ham suv sifatiga sezilarli ta'sir qiladi. Forish,

Jomboy, Nurobod, Pastdarg'om tumanlari va Samarqand shahri sanoat tomonidan ifloslanishga eng yuqori hissa qo'shmoqda.

8. Iqlim o'zgarishi ta'sirini baholash o'rganilayotgan davrda (1960-2020) haroratning biroz o'sishi (0,02-0,04°C) trendini ko'rsatadi. Biroq, yog'ingarchilik va suv sarfi ma'lumotlari uzoq muddatli sezilarli trendni namoyon etmaydi. Garchi 1991-2000 yillarda haroratning oshishi tendentsiyasi (0,12-0,15°C) kuzatilgan bo'lsada, biroq azot birikmalari bilan ifloslanishni o'rgangan davrimizda (2010-2023) haroratning oshishi trendi kuzatilmadi. Natijada, iqlim o'zgaruvchilari (yog'in va harorat) va azot birikmalari o'rtasidagi korrelyatsiya tahlili sezilarli bog'liqlikni ko'rsatmadi, bu esa asosan mavjud boshqa (agrosanoat) omillarning suvdagi azot darajasiga ta'sir qilishini ko'rsatdi. Ehtimol, azot birikmalarini va ularning keyingi davrdagi iqlim o'zgarishlari bilan bog'liqligini o'rganish ushbu omillar o'rtasidagi mumkin bo'lgan o'zaro bog'liqlikni to'g'ri baholashga imkon beradi.

9. Olingan natijalar va amaliy tavsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi zararli azot birikmalari bilan ifloslanish darajasini pasaytirish hisobiga ekotizim xizmatlari va biologik xilma-xillikni saqlash, aholi farovonligi va salomatligini yaxshilashga hizmat qilishi orqali ifodalanadi.

ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL AT THE SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.T.10.02 AT "TASHKENT INSTITUTE OF IRRIGATION AND AGRICULTURAL MECHANIZATION ENGINEERS" NATIONAL RESEARCH UNIVERSITY

"TASHKENT INSTITUTE OF IRRIGATION AND AGRICULTURAL MECHANIZATION ENGINEERS" NATIONAL RESEARCH UNIVERSITY

SHOERGASHOVA SHOBEGIM SHAROF KIZI

THE INFLUENCE OF ANTHROPOGENIC NITROGEN COMPOUNDS ON THE FORMATION OF WATER QUALITY IN THE ZARAFSHAN RIVER IN THE CONTEXT OF CLIMATE CHANGE

11.00.05 – Environmental protection and rational use of natural resources

DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTORAL DISSERTATION (PhD) OF TECHNICAL SCIENCES

Tashkent – 2024

The theme of doctoral dissertation for a degree of Doctor of Philosophy (PhD) has been registered under No. B2024.3.PhD/T4999 by the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher education, science and innovation of the republic of Uzbekistan.

The dissertation has been prepared at the "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.tiiame.uz) and information-educational portal "ZiyoNet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Karimov Bakhtiyor Kuramboyevich** Doctor of Biological Sciences, Professor
Official opponents:	**Kulmatov Rashid Anarovich** Doctor of Chemical Sciences, Professor
	Myagkov Sergey Vladimirovich Doctor of Technical Sciences, Senior Researcher
Leading organization:	**Research Institute of Environment and Nature Conservation Technologies**

The defense of the dissertation will take place on «___» _____ 202__ year ___ ⁰⁰ at the meeting of the one-time Scientific Council under the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.T.10.02 on awarding scientific degrees at the "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University at the address: 100000, Tashkent city, Kari-Niyaziy st., 39. Tel: (+99871) 237-46-68, e-mail: admin@tiiame.uz.

The dissertation has been registered at the Information-Resource Center of the "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University (Registration No. ___) at the address: 100000, Tashkent city, Kari-Niyaziy st., 39. Tel: (+99871) 237-19-34.

The abstract of the dissertation has been distributed on «___» _____ 202__.
(Protocol No. ___ dated «___» _____ 202__).

Bakiev Masharif Ruzmetovich
Chairman of one-time scientific Council
for awarding scientific degrees, Doctor
of Technical Sciences, Professor

Gapparov Furkat Axmatovich
Scientific Secretary of one-time Scientific
Council on awarding scientific degrees, Doctor
of Technical Sciences, Professor

Radkevich Maria Viktorovna
Chairman of the Scientific Seminar at the one-time
scientific Council on awarding scientific degrees,
Doctor of Technical Sciences, Professor

24

INTRODUCTION (abstract of the PhD dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. The problem of shortage of water resources in the world is becoming urgent. This problem is particularly evident in agriculture, which is the main water consumer, and there are also many problems in providing drinking and industrial needs with quality water. The main sources of water pollution are industrial enterprises, agricultural activities and communal and household economy. The use of various mineral fertilizers in agriculture, the increasingly important role of various chemicals in everyday life, and the often insufficiently treated municipal and industrial wastewaters are discharged into rivers and sewers, are giving special importance to the intensive pollution of water resources. Currently, most of the mineral fertilizers used in the fields and the chemical poisons used to protect the plants lead to surface and underground water pollution through collector-drainage waters. In this respect, the ecological analysis of changes in water quality and the study of influencing anthropogenic factors are of great scientific and practical importance.

Scientific research on water quality and its management is being carried out in the world. In this direction, it is directly related to the achievement of several Sustainable Development Goals (SDGs) set by the United Nations to create a more just, sustainable and prosperous world. In particular, water quality plays a key role in achieving SDG 3: "Good health and well-being" and SDG 6: "Clean water and sanitation"[1]. At the same time, the continuation of the trend of degradation of water ecosystems and reduction of resources in terms of quantity and quality is considered as an urgent task to eliminate the risk of shortage of fresh and clean water for all water consumers.

Population growth in our republic is expected to increase the demand for high-quality fresh water from 2.3 billion m^3 to 2.7-3.0 billion m^3 (18-20%) by 2030[2]. This leads to an increase in the demand for internal water resources. In recent years, industry and energy are actively developing, and the demand for water in these sectors is increasing year by year. As a result, protection of water resources from pollution, improvement of the quality of surface and underground water, improvement of water quality monitoring are becoming one of the main tasks of the state policy in the field of water management.

This dissertation research to a certain extent contributes to the fulfillment of the tasks provided for by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. DP-5863 "On approval of the concept of environmental protection of the Republic of Uzbekistan until 2030"[3] dated October 31, 2019 aimed at protecting against depletion and pollution of water resources in agriculture and public utilities. The study also complies with the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. RP-5005 "On approval of the Strategy for water resources

---

[1] The 17 SDGs. United Nations Sustainable Development Summit, 2015.

[2] State of Food and Agriculture Report. FAO, 2022.

[3] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. DP-5863 "On approval of the concept of environmental protection of the Republic of Uzbekistan until 2030" dated October 31, 2019.

